

«AL-CHIROQ» AKSIYA QOIDALARI VA SHARTLARI

Aksiyaning o'tkazilish muddati: 20.04.2021-y.dan 20.04.2022-y.gacha.

Aksiyaning qoidalar va ishtirok etish shartlari (matnda keyingi o'rinlarda – «Qoidalar») «COSCOM» MChJ uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Ommaviy oferta shartlarini qabul qilgan jismoniy shaxslar – aksiya ishtirokchilari (matnda keyingi o'rinlarda – «Abonentlar»/«Aksiya ishtirokchilari»)ga qaratilgan ommaviy oferta hisoblanadi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Aksiya doirasida quyidagi atamalar va tushunchalar qo'llanadi:

- Operator – O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligidan 17.12.2018-y.da berilgan AA 0006634 raqamli litsenziya asosida uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etuvchi «COSCOM» mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi «COSCOM» MChJ, Ucell savdo belgisi).
- Tashkilotchi/Kontent-provayder – Operator bilan o'zaro shartnoma munosabatlarida bo'lgan va Operator bilan tuzilgan shartnoma asosida Abonentlar uchun xizmatlar ko'rsatuvchi «First IT-Group» MChJ.
- Abonent – Operatorning uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Ommaviy ofertasi shartlarini qabul qilgan, 18 yoshga to'lgan har qanday jismoniy shaxs. Abonent raqami – ommaviy oferta shartlari amal qilish davriga Operator tomonidan Abonent uchun ajratilgan va Operator tarmog'iga ulangan Abonent qurilmasini identifikatsiya qiluvchi raqam.
- Abonent qurilmasi – Abonentga tegishli bo'lgan (u ishlatayotgan), Abonent tomonidan belgilangan axborotni aloqa kanallari bo'ylab uzatish yoki qabul qilish uchun Tarmoqqa ulanuvchi yakuniy ko'chma radiotelefon (uyali) aloqa qurilmasi.
- Kompaniya veb-sayti – Internet tarmog'idagi www.ucell.uz elektron manzilida joylashgan Operator axborot resursi.
- SMS (qisqa xabarlar xizmati) – Operator tomonidan Abonentga ko'rsatiluvchi, matnli qisqa xabarlarni mobil (uyali) telefonidan yuborish va unga qabul qilish imkonini beruvchi xizmat.
- Tarmoq – Operatorning O'zbekiston Respublikasi hududida Abonentga aloqa xizmatlarini taqdim etishda yordam beruvchi texnik vositalari (kommutatsion va radiouskunalar, abonent qurilmalari, bog'lovchi liniyalar, inshootlar va h.k.) jamlanmasi.
- Servis raqami – Abonentga Kontent xizmatlarini taqdim etishi uchun kontent-provayderga Operator tomonidan ajratilgan raqam.
- Aksiya ishtirokchisi – Aksiya mobil ilovasida «Ro'yxatdan o'tish» tugmachasini bosish bilan ushbu Qoidalarni qabul qilgan Prepaid tizimi Abonenti.
- Aksiya – Operator tomonidan Kontent-Provayder bilan hamkorlikda «Al-Chiroq» nomi ostida o'tkaziluvchi, ulangan Abonent har bir kun uchun 100 so'm (QQS bilan) miqdoridagi abonent to'lovi evaziga bittadan xizmatdan foydalanish imkoniga ega bo'luvchi aksiyada ishtirok etish imkonining taqdim etilishi.
- Aksiyada ishtirok etish – Tashkilotchi tomonidan o'rnatilgan va mazkur Ofertada bayon etilgan shartlarning Abonent tomonidan to'liq va so'zsiz qabul qilinishi, Aksiyada ishtirok etishga Tashkilotchi tomonidan belgilangan talablarga Abonentning roziligi hamda mazkur Ofertaning Tashkilotchi o'rnatgan shartlariga amal qilish bo'yicha majburiyatlarning Abonent tomonidan qabul qilinishi.
- Obuna – Abonentga belgilangan to'lov evaziga muayyan vaqt davomida Aksiyada qatnashish imkoni taqdim etilishi.
- Vaqtinchalik parol – «Al-Chiroq» ilovasida ro'yxatdan o'tish va ayrim xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi raqamli kod.

- Ro'yxatdan o'tish/Avtorizatsiya – SMS orqali olingan vaqtinchalik parolni mobil ilova interfeysida kiritish yo'li bilan mobil ilova orqali amallar bajariladigan telefon raqamining to'g'riligini tasdiqlash.

- Shaxsiy hisob – Abonent bilan tuzilgan mazkur Shartnomaga muvofiq ko'rsatilgan Xizmatlar hajmini, pul mablag'larining kelib tushishi va sarflanishini hisobga olishga mo'ljallangan, Operator billing tizimidagi tahliliy hisob registri.

- Ilova – «Al-Chiroq» mobil ilovasi.

1.2. Abonentlarga SMS-tarqatma yo'li bilan Aksiyada ishtirok etish imkonining taqdim etilishi ko'rinishidagi xizmatdan foydalanish taklif etiladi; unga ulanganida, Abonent aksiya shartlarini boshqa Abonentlardan tezroq va yaxshiroq bajarganida kuniga 100 so'm (QQS bilan) miqdoridagi abonent to'lovi evaziga har kuni bittadan xizmatdan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

1.3. Aksiyaning 1 (bir) kunida Aksiya Ishtirokchisi kuniga 100 so'm (QQS bilan) miqdoridagi abonent to'lovi evaziga tasodifiy tartibda 1 (bitta) xizmatdan foydalanish imkoniga ega bo'ladi.

1.4. Aksiya mazkur Qoidalarda ko'zda tutilgan tartibda, muddatlar, shartlarda va ko'rinishda taqdim etiladi.

2. AKSIYANING O'TKAZILISH TARTIBI

2.1. Aksiyada faqat Prepaid tizimi abonentlari ishtirok eta oladilar.

2.2. Aksiyaning o'tkazilish shartlari:

2.2.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

A) «Al-Chiroq» mobil ilovasini yuklab olish va o'rnatish (faqat Android va iOS uchun), mobil ilovada ro'yxatdan o'tish; Aksiyada ishtirok etishga obuna bo'lish va mobil ilovadan foydalanishni boshlash;

B) Telegram messenjerida @Al_chiroqbot botini ishga tushirish, ro'yxatdan o'tish;

C) *718# USSD buyrug'ini terish va menyudan kerakli punktini tanlash.

2.2.2. Aksiya mexanikasi: Ilovada (ro'yxatdan o'tgandan so'ng) ishtirokchiga virtual sehrli chiroqdan foydalanish harakatini bajarish taklif qilinadi, keyin tizim Aksiya doirasida ko'zda tutilgan xizmatlardan birini tasodifiy tartibda tanlaydi va kuniga 100 so'm (QQS bilan) miqdoridagi abonent to'lovi evaziga xizmatdan foydalanish imkonini beradi.

2.2.3. Qoidalarning 2.2.1-bandida ko'rsatilgan harakatni amalga oshirgan Ishtirokchi, o'zining shaxsiga oid ma'lumotlari Kontent-provayder va Operator tomonidan to'planishi, saqlanishi, uchinchi shaxslarga berilishi, ko'rib chiqilishiga hamda Aksiya doirasida Ishtirokchi bilan, shu jumladan elektron aloqa tarmoqlari, SMS-xabarlar almashish va elektron pochta orqali bog'lanish uchun qo'lanishiga o'z ixtiyori bilan rozilik beradi. Kontent-provayder va Operator tomonidan bunday harakatlarning bajarilishi ulardan Aksiya Ishtirokchisidan qandaydir qo'shimcha ruxsat olishini va sanab o'tilgan xarakterlarning amalga oshirilganligidan maxsus xabardor qilishini talab etmaydi. Ishtirokchining bunday roziligi Aksiya o'tkazilishi davrida va Operator qaroriga ko'ra uning tugatilishidan yoki Ishtirokchining Aksiyaga obunani bekor qilishidan keyingi 30 (o'ttiz) taqvimiy kun davomida amalda bo'ladi.

2.2.4. Aksiyaning o'tkazilish jarayoni quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

A) Aksiya Ishtirokchilari (Aksiyada ro'yxatdan o'tganidan keyin) mobil ilova mexanikasida ko'zda tutilgan kerakli harakatlarni bajarishadi.

B) Tizim tasodifiy (erkin) tartibda xizmatni tanlaydi va Aksiya Ishtirokchisiga mazkur xizmatni kuniga 100 so'm (QQS bilan) miqdoridagi abonent to'lovi evaziga taqdim etadi.

C) Ishtirokchi Aksiya o'tkazilishi davrida har kuni tasodifiy tartibda bittadan xizmatdan foydalanish imkoniga ega.

D) Aksiya doirasida ajratilgan xizmatlar takroran belgilanishi mumkin. Bir xil xizmat qayta belgilanganida, xizmatning amal qilish muddati oxirgisining muddatiga teng qilib o'rnatiladi, bunda oldingi (so'nggi belgilangan xizmat bilan aynan bir xil bo'lgan) xizmat bekor qilinadi.

2.2.5. Aksiya doirasida xizmatlar belgilanishining shartlari va tartibi:

A) Aksiya doirasida xizmatlar Aksiya Ishtirokchilarining faqat xizmat belgilanishi paytida faol holatda (abonent raqamining shaxsiy hisobi musbat holda) bo'lgan abonent raqamlariga belgilanishi mumkin.

B) Aksiya doirasidagi xizmat Aksiya Ishtirokchisi mobil ilovada kerakli harakatni bajarganidan keyin darhol, tasodifiy tartibda belgilanadi.

C) Aksiya doirasida har bir kuniga 100 so‘m (QQS bilan) miqdoridagi abonent to‘lovi evaziga quyidagi xizmatlarga ulanish imkoniyati taqdim etiladi:

№	Xizmat nomi	Limitlarning amal qilish muddati
1	Internet-to‘plam 100 MB	7 kun
2	Internet-to‘plam 150 MB	7 kun
3	Internet-to‘plam 200 MB	7 kun
4	Internet-to‘plam 250 MB	7 kun
5	Internet-to‘plam 300 MB	7 kun
6	Internet-to‘plam 350 MB	7 kun
7	Internet-to‘plam 400 MB	7 kun
8	Internet-to‘plam 450 MB	7 kun
9	Internet-to‘plam 500 MB	7 kun
10	Internet-to‘plam 1000 MB*	30 kun
11	SMS-to‘plam 50	7 kun
12	SMS-to‘plam 100	7 kun
13	SMS-to‘plam 200	7 kun
14	SMS-to‘plam 500	7 kun
15	30 daqiqa	7 kun
16	60 daqiqa	7 kun
17	120 daqiqa	7 kun
18	180 daqiqa	7 kun
19	1000 daqiqa*	30 kun

- *Internet-to‘plam 1000 MB yoki 1000 daqiqa faqatgina abonent raqami «Al-Chiroq» aksiyasida ilk bor ro‘yxatdan o‘tganida taqdim etiladi. Qayta ro‘yxatdan o‘tilganda ro‘yxatdan o‘tish evaziga limitlar taqdim etilmaydi.
- Xizmatlar doirasidagi trafik yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan amal qilish muddati bo‘yicha taqdim etiladi.
- Daqiqalar O‘zbekiston bo‘yicha belgilanadi.

D) Xizmatlar to‘plamlari tasodifiy tartibda belgilanadi.

E) Bir kunda kunlik obuna evaziga faqat bitta xizmatlar to‘plami belgilanishi mumkin.

2.2.6. Bonus xizmatlar to‘plamlari bo‘yicha trafik belgilanganidan so‘ng, o‘z xohishlariga ko‘ra, Aksiya ishtirokchilari tegishli 200 va 300 so‘mlik (QQS bilan) qo‘shimcha to‘lov evaziga ikkinchi va uchinchi urinish orqali yana qo‘shimcha bonus to‘plamlari olish imkoniyatiga egadirlar.

2.2.7. Qo‘shimcha 1000 so‘m, 2000 so‘m, 3000 so‘m (QQS bilan) evaziga foydalanuvchiga quyidagi jadvalga muvofiq alohida MB/daqiqalar to‘plamlaridan tanlab olishi uchun premium to‘plamlar taklif etiladi:

Premium internet-to‘plamlar		
1	Internet-to‘plam 550 MB	7 kun
2	Internet-to‘plam 600 MB	7 kun
3	Internet-to‘plam 650 MB	7 kun
4	Internet-to‘plam 700 MB	7 kun
5	Internet-to‘plam 750 MB	7 kun
6	Internet-to‘plam 800 MB	7 kun

Premium ovozi to‘plamlar		
1	30 daqiqa	7 kun
2	60 daqiqa	7 kun
3	120 daqiqa	7 kun
4	180 daqiqa	7 kun
5	1000 daqiqa*	30 kun
6	2000 daqiqa*	30 kun

7	Internet-to‘plam 850 MB	7 kun
8	Internet-to‘plam 900 MB	7 kun
9	Internet-to‘plam 950 MB	7 kun
10	Internet-to‘plam 1000 MB*	30 kun
11	Internet-to‘plam 2000 MB*	30 kun
12	Internet-to‘plam 5000 MB*	30 kun

7	3000 daqiqa*	30 kun
---	--------------	--------

*oyda bir marta belgilanadi

2.2.8. Har bir 200 so‘mlik (QQS bilan), 300 so‘mlik (QQS bilan), hamda 1000 so‘mlik (QQS bilan), 2000 so‘mlik (QQS bilan), 3000 so‘mlik (QQS bilan) (alohida tanlanuvchi MB/daqiqalar to‘plamlari) qo‘shimcha imkoniyat xarididan kuniga bir martadan oshiq foydalanib bo‘lmaydi.

2.2.9. Qo‘shimcha va premium to‘plamlardan foydalanish uchun navbatga qat‘iy amal qilish lozim.

2.2.10. Xizmatlar to‘plamlari doirasidagi trafik 2.2.7-bandga muvofiq jadvalda ko‘rsatilgan amal qilish muddati bo‘yicha belgilanadi.

2.2.11. Daqiqalar O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi qo‘ng‘iroqlar uchun amal qiladi.

2.3. Xizmatlarni taqdim etish shartlari bilan ucell.uz saytining tegishli sahifalarida tanishish mumkin.

2.4. «Al-Chiroq» aksiyasi doirasidagi internet-xizmatlarning to‘g‘ri ishlashi uchun, agar internet-to‘plamni faollashtirish vaqtida internet ishlayotgan bo‘lsa, uni uzib turish va keyin qayta ulash lozim.

2.5. Quyidagi xizmatlardan biri faollashtirilganida xizmatlar to‘plami sarflanmasligi mumkin: «Tungi internet», «4Gni sinab ko‘r», «Trafik+», «Tas-IX uchun to‘plamlar», «Soatbay internet», «4Gni tunda sinab ko‘r», «Cheksiz internet-to‘plamlar», «Oylik 4G internet-to‘plamlar», «Tungi internet-to‘plamlar», «Internet Mega BOOM», «Bolalar uchun», «Maksimal internet», «iTV online kinoteatri» va aksincha.

2.6. Mobil ilova ichida reklama mavjud.

2.7. 7117 qisqa raqami yoki Al-Chiroqning alfa nomi faqat ma‘lumotlar uchun mo‘ljallangan.

2.8. «Minnatdormiz» TRda va «Kayfiyat» tarif rejalarida oldin tarif rejalarida doirasidagi daqiqalar sarflanadi.

2.9. «Yangi ijobiy», «Ko‘proq», «Baxtli 25» TRda va «Kayfiyat» tarif rejalarida oldin tarif rejalarida doirasidagi megabaytlar sarflanadi.

2.10. «Kayfiyat» tarif rejalarida oldin tarif rejalarida doirasidagi SMSlar sarflanadi.

2.11. Limitlar qoldig‘ini tekshirish uchun *467# tering. *467# so‘rovida barcha internet-sessiyalar yopiq bo‘lgan paytdagi MBlar qoldig‘i ko‘rsatiladi.

2.12. O‘zaro mos kelmaydigan xizmatlar ro‘yxati:

- «Special Unlim», «Special Unlim Turbo», «Tantana Unlim», «Special 70», «Special 80», «Special 80+», «Special 100», «Special 100+», «Special 125», «Special 125+», «Active 100», «Active BN FREE» tarif rejalarida Al-Chiroq aksiyasi doirasidagi daqiqa-to‘plamlari;
- «Uchar internet», «Special Unlim», «Special Unlim Turbo» va «Drive» tarif rejalarida Al-Chiroq aksiyasi doirasidagi internet-to‘plamlari;
- «Azizlarim» tarif rejasi abonentlari aksiyadan foydalana olmaydilar.

2.13. Aksiyada ishtirok etishdan voz kechish uchun, Aksiya Ishtirokchisi quyidagi amallarni bajarishi lozim:

A) «Al-Chiroq» ilovasining «Sozlamalar» bo‘limida «Obunani bekor qilish» bandini tanlash;

B) @Al_Chiroqbot botida «Sozlamalar» bandini tanlash, «Obuna»ga o‘tish va Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishni tasdiqlash.

C) *718# USSD buyrug‘ini terish va menyudan kerakli punktini tanlash.

3. AKSIYA SHARTLARINI QABUL QILISH

3.1. Aksiyaning barcha ishtirokchilari mobil ilova yoki Telegram bot orqali (samarali) ro'yxatdan o'tish bilan o'zlarining mazkur Qoidalarni diqqat bilan o'qiganlari va to'liq tushunganlarini kafolatlaydilar.

3.2. Operator va Kontent-provayder taklifni va mazkur shartlarni istalgan payt bekor qilish yoki o'zgartirish huquqiga egalari. Har qanday o'zgarish chop qilingan kun yoki avvaldan e'lon qilingan kundan kuchga kiradi. Barcha publikatsiyalar www.ucell.uz saytida chop etiladi.

3.3. Aksiya Ishtirokchisi mazkur Oferta shartlaridagi o'zgarishlarga yoki mobil ilova funksionalini o'zgarishiga rozi bo'lmasa, undan foydalanishni to'xtatishga haqlidir. Mobil ilovadan foydalanishni qayta boshlashi Aksiya Ishtirokchisi Aksiya shartlariga roziligini bildiradi.

3.4. Aksiyaning shartlari va o'tkazilishiga oid bahs yuzaga kelsa, Operator va Kontent-provayderning qarori yakuniy hisoblanadi; agar qonunchilikda boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, hech qanday talab yoki muhokama kuchga kirmasligi lozim.

3.5. Aksiyaning texnik sabablar, masalan, ta'mir uchun, rejadagi texnik xizmat ko'rsatish yoki modernizatsiya maqsadida Aksiyaning vaqtinchalik to'xtatilib turishlariga qaramasdan, mazkur bitim Operator va Kontent-provayder tomonidan Aksiya taqdim etilayotgan butun vaqt mobaynida to'liq hajmda o'z kuchida qoladi.

4. AKSIYANING QO'SHIMCHA SHARTLARI

4.1. Operatorning Prepaid tizimidagi haqi oldindan to'lanuvchi tarif rejalarining Abonentlari – 18 yoshga to'lgan O'zbekiston fuqarolari bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar raqamlari Faol holatda bo'lganida, KONTENT-XIZMATning ushbu shartlarida ko'zda tutilganidek, butun O'zbekiston Respublikasi hududida mazkur Aksiyadan foydalana oladilar.

4.2. Aksiyada ishtirok etayotib, har bir Aksiya Ishtirokchisi o'z shaxsiga oid ma'lumotlarning «COSCOM» MChJ tomonidan mazkur Aksiyani o'tkazish maqsadlarida to'planishi va ko'rib chiqilishiga rozilik beradi.

4.3. Aksiyada ishtirok etish narxi – kuniga 100 so'm (QQS bilan). Bunda Aksiya shartlarining bajarilishi bilan bog'liq (Internet haqi va boshqa) to'lovlarni har bir Ishtirokchi mustaqil tarzda amalga oshiradi.

4.4. Aksiya haqidagi barcha ma'lumotlarni www.ucell.uz saytidan, Al-Chiroq mobil ilovasidan, hmada @Al_Chiroqbot Telegram boti orqali olish mumkin.

4.5. Abonent va Operator bevosita mazkur Ofertada ko'zda tutilmagan boshqa barcha holatlarda «COSCOM» MChJ uyali radiotelefon aloqa xizmatlarini taqdim etish bo'yicha Ommaviy ofertaga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi me'yorlariga tayanadilar.

4.6. Ilovadan O'zbekiston Respublikasi uyali aloqa operatorlarida va internet-provayderlari tarmoqlarida, tarmoq ichi va xalqaro roumingda foydalanish mumkin.

4.7. Aksiya doirasida (2.2.5 va 2.2.7-bandlarda) ko'zda tutilgan xizmatlardan Roumingda foydalanib bo'lmaydi.

4.8. Ilova Operator va/yoki Kontent-provayder tomonidan Aksiya Ishtirokchilariga boshqa xizmatlar haqida bildirishnomalar yetkazish uchun qo'llanishi mumkin.

4.9. Ishtirokchilarning shaxsiga oid va boshqa maxfiy ma'lumotlaridan foydalanmagan holda, mobil ilova axborotlari Operator tomonidan marketing tadqiqotlari o'tkazish uchun qo'llanishi mumkin.

4.10. Abonent Aksiya Ishtirokchisiga aylangan paytdan boshlab, u Aksiyaning o'tkazilish jarayonida ma'lumot uzatish tarmoqlari va jihozlarida, dasturiy ta'minotning o'zida Kontent-provayderning/Operatorning harakatlariga bog'liq bo'lmagan hamda Kontent-provayder/Operator mustaqil tarzda aniqlay va tuzata olmaydigan texnik nosozliklar yuz berishi mumkinligiga rozilik beradi. Shu sababli Aksiyaning har bir Ishtirokchisi Aksiyada o'zining ishtiroki (bonuslar, ballar belgilanishi, balans va h.k.) jarayonini mustaqil tarzda o'zi kuzatib boradi, Ilovaning yoki Xizmatlar ko'rsatilishining noto'g'ri ishlayotganini aniqlasa, mazkur Ofertada yozilganidek,

Aksiya Ishtirokchisi zudlik bilan bunday faktlar haqida +998 (71) 205 12 89 xizmat raqami orqali Kontent-provayderga/Operatorga xabar beradi. Faqat shunday murojaatdan keyingina Kontent-provayder/Operator buzilishlar mavjudligini aniqlash uchun tekshiruv o'tkazadi va mazkur holat tasdiqlansa, belgilashlarni tuzatadi. Aks holda Kontent-provayder/Operator texnik buzilishlar natijasi uchun javobgar bo'lmaydi.

4.11. Aksiya Ishtirokchisi mobil ilovani sust emas, balki faol tarzda ishlatganida, ixtiyoriga ko'ra unga qo'shimcha to'plamlardan tashqari, premium to'plamlar ham taqdim etiladi. Buning uchun Aksiya Ishtirokchisi virtual sehrli chiroqdan foydalanish bo'yicha amallar bajarishi lozim, shundan keyingina tizim Aksiya doirasida ko'zda tutilgan xizmatlardan birini tasodifiy tartibda tanlaydi. Bundan tashqari, premium to'plamlardan foydalanish imkoni faqat Aksiya Ishtirokchisi tomonidan amallar faolligini ko'rsatuvchi holat – abonent to'lovi evaziga xizmat (qo'shimcha bonuslar) belgilanganidan so'ng taqdim etiladi.

5. YUTUQLI O'YIN

5.1. Aksiya doirasida Tashkilotchi tomonidan 2.2.5–2.2.7-bandlarda ko'rsatilgan qo'shimcha imkoniyatlar uchun sovrinlar yutuqli o'yini o'tkaziladi.

5.2. Aksiya Ishtirokchisi sovrinlar va bonus xizmatlar to'plamlari yutuqli o'yinida ishtirok etish uchun «Al-Chiroq» Aksiyasiga obuna bo'lishi lozim.

5.3. Yutuqli o'yin uchta darajadan iborat, ulardan har biri o'z sovrin jamg'armasiga va ballarning maksimal chegarasiga ega bo'ladi.

5.4. Aksiya Ishtirokchisi bir vaqtning o'zida sovrinlar yutuqli o'yinining barcha uchta darajasida ham ishtirokchi bo'la oladi.

5.5. Ballar parallel tarzda barcha darajalar bo'yicha belgilanadi.

5.5.1. Ballarning belgilanishi quyidagi mexanika asosida bo'lib o'tadi:

Qiymati	Ballar		
	1-daraja	2-daraja	3-daraja
100 so'm («Al Chiroq» aksiyasi abonent to'lovi)	200	150	100
200 so'm (QQS bilan)	300	300	200
300 so'm (QQS bilan)	400	450	300
1000 so'm (QQS bilan)	500	500	600
2000 so'm (QQS bilan)	600	600	700
3000 so'm (QQS bilan)	700	700	800

5.5.2. Birinchi darajada bitta davr uchun ballarning maksimal miqdori 20,000 balldan oshmasligi kerak.

5.5.3. Ikkinchi darajada bitta davr uchun ballarning maksimal miqdori 60,000 balldan oshmasligi kerak.

5.5.4. Uchinchi darajada bitta davr uchun ballarning maksimal miqdori 120,000 balldan oshmasligi kerak.

5.6. Foydalanuvchilarning ballari ilovada alohida har bir daraja uchun holat qatorida, 0% dan 100% gacha bo'lgan foiz ifodasida aks etadi.

5.7. Maksimal chegaraga yetgach, foydalanuvchi 5.10-bandda ko'rsatilgan sovrin jamg'armasidagi sovrinlar/bonuslardan birini yutib olish imkonini qo'lga kiritadi, u «Al Chiroq» ilovasida sovrinlar olish tarixida qayd etiladi.

5.7.1. Maksimal chegaraga yetilganida holat qatori indikator boshlang'ich 0% ko'rsatkichga tushadi, ballar to'plash boshidan boshlanadi, bunda o'tgan davrdan ortib qolgan ballar ham qo'shiladi (misol: 2-darajadagi foydalanuvchida umumiy 59 900 ball mavjud, keyingi kuni amalga oshirgan harakatlari evaziga foydalanuvchi 150 ball oldi, natijada u 60 050 ball to'pladi. Maksimal chegara 60 000 ball bo'lgani uchun, unga ikkinchi daraja sovrinlaridan biri belgilanadi va keyin ballari nolga tenglashtiriladi hamda qoldiq – 50 ball uning yangilangan sovrinlar hisobiga qo'shiladi).

5.8. Ballar to'plash uchun Aksiya Ishtirokchisi chiroqni ishqlash va 2.2.5 hamda 2.2.7-bandlarda ko'rsatilgan to'plamlardan birini olish harakatini amalga oshirishi lozim. Har bir daraja uchun

maksimal miqdorda ball to‘plaganida va 100% lik chegaraga yetganida, Aksiya Ishtirokchisiga o‘zi ball to‘plagan darajaga muvofiq qo‘shimcha to‘lov evaziga qimmatbaho sovrin yoki aloqa xizmatlari uchun bonus to‘plam yutib olish imkoniyati taqdim etiladi. Kuniga 100 so‘mlik (QQS bilan) abonent to‘lovining yechilishi bunday harakat hisoblanmaydi va, toki Aksiya Ishtirokchisi chiroqni ishqalamagunicha unga ballar belgilanmaydi.

5.9. Sovrin jamg‘armasidagi sovrinni yoki bonus xizmatlar to‘plamini olish uchun foydalanuvchi tegishli to‘lov evaziga «Sovrinni ochish» tugmachasini bosish yo‘li bilan sovrin qiymatini to‘lashi lozim:

1-daraja – 100 so‘m (QQS bilan);

2-daraja – 200 so‘m (QQS bilan);

3-daraja – 300 so‘m (QQS bilan).

5.10. «Al Chiroq» aksiyasi yutuqli o‘yin bosqichining sovrin jamg‘armasi:

5.10.1. Tashkilotchi (Kontent-provayder) tomonidan taqdim etiluvchi sovrinlar

1-daraja	2-daraja	3-daraja
Simli quloqchin	Mi Band 5	Apple iPad
Simsiz quloqchin	Mi Band 6	Mi Band 6
Powerbank	Smart Watch Amazfit	Mi/Realme/Redmi smartfoni
Mi Band 5	Mi/Realme/Redmi smartfoni	Samsung smartfoni
Smart Watch Amazfit	Samsung smartfoni	Apple iPhone 12 4/64

5.10.2. Operator (Ucell) tomonidan taqdim etiluvchi bonus xizmatlar to‘plamlari

1-daraja	2-daraja	3-daraja
1000 MBlik internet-to‘plam	2000 MBlik internet-to‘plam	5000 MBlik internet-to‘plam
O‘zbekiston bo‘ylab 1000 daqiqalik ovozli to‘plam	O‘zbekiston bo‘ylab 2000 daqiqalik ovozli to‘plam	O‘zbekiston bo‘ylab 3000 daqiqalik ovozli to‘plam

5.11. Sovrinlar/bonus to‘plamlari tasodifiy tarzda belgilanadi. Bunda Aksiya Ishtirokchisi sovrinlar/bonus to‘plamlaridan birini bir necha marta yutib olishi mumkin.

5.12. Sovrin jamg‘armasi toki Tashkilotchining omborida tugab qolgunicha ayni shu sovrinlar bilan to‘ldirib boriladi.

5.13. Yutuqli o‘yin tashkilotchisi – «First IT-Group» MChJ.

5.14. Yutuqli o‘yinda test raqamlari, «COSCOM» MChJ, «First IT-Group» MChJ xodimlari va ularning yaqin qarindoshlari ishtirok eta olmaydilar.

5.15. Yutuqli o‘yinda «Al Chiroq» aksiyasi qatnashchilari ishtirok etishlari mumkin.

6. QIMMATBAHO SOVRINLARNI/BONUS XIZMATLAR TO‘PLAMLARINI OLISH

6.1. Sovrin belgilanishi haqidagi ma’lumot ilova ichidagi tarixda saqlanadi.

6.2. Yutib olingan moddiy sovrinlar yutuqli o‘yin g‘oliblariga yetkazib berilmaydi. Sovrinlarni topshirish joyi haqidagi ma’lumot g‘oliblarga telefon orqali yoki SMS-xabarda yetkaziladi.

6.3. Sovrinning topshirilishi uchun topshirish joyiga yetib kelish va ortga qaytish bilan bog‘liq bo‘lgan va boshqa bo‘g‘liq bo‘lgan barcha xarajatlar g‘olibning zimmasida bo‘ladi.

6.4. Bonus xizmatlar to‘plamlari doirasidagi trafik Aksiya Ishtirokchilariga belgilanish paytida abonent raqamiga taqdim etiladi.

6.5. Sovrinlar Aksiya Ishtirokchisiga yutgani hamda sovrinni topshirish joyi haqida xabar berilganidan keyingi 30 taqvimiy kun davomida topshiriladi.

6.6. Moddiy sovrinlarni olish uchun g‘olib bo‘lgan Aksiya Ishtirokchilari sovrinni olish paytida shaxsni tasdiqlovchi hujjatning aslini ko‘rsatishlari, shaxsni tasdiqlovchi hujjatning skanerlangan nusxasini taqdim etishlari hamda Tashkilotchi tomonidan taqdim etilgan Qabul qilish dalolatnomasini imzolashlari shart. Zarurat tug‘ilsa, Tashkilotchi sovrinlarni topshirish uchun boshqa kerakli hujjatlarni ko‘rsatish/taqdim etishni talab qilishi mumkin. Tashkilotchi, o‘z

navbatida, taqdim etilgan hujjatlarning Operator bazasidagi mavjud ma'lumotlar bilan mos kelishini elektron pochta orqali so'rov yo'li bilan tekshiradi.

6.7. Tashkilotchi sovrinni Aksiya Ishtirokchisiga topshirishni rad etish huquqiga ega, agarda Aksiya Ishtirokchisi:

- mazkur qoidalarni va Aksiya shartlarini buzsa;
- hujjatlarni taqdim etmasa;
- sovrinni topshirish uchun kerak bo'ladigan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortganini ko'rsatuvchi harakat/harakatsizlik qilsa;
- yutgani haqida xabar berilgan paytdan boshlab 30 taqvimiy kun davomida sovrinni olishdan yozma shaklda bosh tortsa;
- sovrinning topshirilishi haqidagi hujjatlarni imzolashdan bosh tortsa.

7. MUROJAATLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

7.1. Aksiya doirasida Abonentda tug'iluvchi savollarni hal etish uchun, Abonent tegishli ariza bilan Tashkilotchiga/Operatorga murojaat etishi mumkin, uning ko'rib chiqilishi amaldagi qonunchilik doirasida va Tashkilotchi/Operator tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

7.2. Aksiya doirasidagi majburiyatlar Tashkilotchi/Operator tomonidan umuman yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisi o'z e'tirozini yozma, og'zaki va/yoki elektron shaklda taqdim etishga haqli.

7.3. Mazkur Qoidalardan kelib chiquvchi, majburiyatlarning o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarilmasligi bilan bog'liq masalalar yuzasidan e'tirozlar Aksiya o'tkazilishi muddatida qabul qilinadi.

7.4. Aksiya Ishtirokchisining murojaati, agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, murojaat ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) kundan oshmagan muddatda Tashkilotchi/Operator tomonidan ko'rib chiqiladi.

7.5. Murojaatni ko'rib chiqish natijalari haqida Tashkilotchi/Operator yozma yoki og'zaki shaklda (Aksiya Ishtirokchisining talabiga ko'ra) xabar beradi. Yozma javob buyurtma xat tarzida, elektron pochta orqali, shuningdek, jo'natuvchining qayd etilishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositalarini qo'llagan holda yuboriladi, yoki Aksiya Ishtirokchisiga imzo asosida topshiriladi. Og'zaki javob telefon/mobil aloqa vositasida taqdim etiladi.

7.6. Tashkilotchi mazkur Oferta shartlariga ko'ra o'z majburiyatlarini umuman yoki lozim darajada bajarmagan holatlarda, Aksiya Ishtirokchisi tomonidan talablar taqdim etilgan kundan boshlab 20 kundan oshmagan muddatda Aksiya Ishtirokchisining talabiga binoan kamchiliklarni beg'araz tarzda bartaraf etishi lozim.

7.7. «Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 30-moddasiga muvofiq, agar takroriy murojaatlarda yangi vajlar yoki yangidan ochilgan holatlar keltirilmagan bo'lsa, ilgari murojaat materiallarida esa tekshiruvlarning to'la-to'kis materiallari mavjud bo'lsa va murojaat qiluvchiga belgilangan tartibda javoblar berilgan bo'lsa, takroriy murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.

8. FORS-MAJOR

8.1. Tomonlardan istalgan biri ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki yetarlicha bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar ushbu bajarmaslik Aksiya o'tkazilishi muddatida yuzaga kelgan, yengib bo'lmas holatlar natijasi bo'lsa. Yengib bo'lmas holatlar deganda Tomonlar avvaldan ko'rishga va o'zidagi vositalar bilan oldini olishga qodir bo'lmagan favqulodda hodisalar yoki holatlar tushuniladi. Bunday «favqulodda hodisalar yoki holatlar», xususan, quyidagilarni o'z ichiga oladi: yong'inlar, uchinchi shaxslarning harakatlari, tabiiy ofatlar (toshqinlar, zilzilalar va h.k.), harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi boshqaruvi vakolatli organlarining harakatlari yoki me'yoriy aktlari, shuningdek, Tomonlarning oqilona nazorati doirasidan chiquvchi, favquloddalik xususiyatini Tomonlar oldindan ko'rishga ham, oldini olishga ham qodir bo'lmagan istalgan boshqa holatlar.

9. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

9.1. Tomonlar o'z majburiyatlarini umuman yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida hamda mazkur Qoidalarda ko'zda tutilgan tarzda javobgar bo'ladilar.

9.2. Aybdor tomon faqat hujjatlarda tasdiqlangan, boshqa tomonga to'g'ridan-to'g'ri yetkazilgan zararlar uchun javobgar bo'ladi. Bilvosita ziyonlar, ma'naviy zarar, shuningdek qo'ldan chiqarilgan daromad qoplab berilmaydi.

9.3. Tashkilotchi/Operator quyidagilar uchun javobgar bo'lmaydi:

9.3.1. Xizmatlarni ko'rsatish imkonsizligi, agarda bu Aksiya Ishtirokchisi tomonidan Abonent qurilmasining noto'g'ri qo'llanishi bilan bog'liq bo'lsa;

9.3.2. Aksiya Ishtirokchisining Ilovadan/Xizmatlardan foydalanishda yuzaga kelgan tasodifiy, bilvosita ziyonlar bilan bog'liq bo'lgan ehtimoliy zararlarini;

9.3.4. Aksiya Ishtirokchisining so'roviga ko'ra taqdim etilgan axborot Aksiya Ishtirokchisining shaxsiy kutilmasiga va uning subyektiv baholashiga mos kelmasligi;

9.3.5. Telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi uzilishlar, ziyonkor dasturlar ta'sirlari, shuningdek, uchinchi shaxslarning Tashkilotchi/Operator dasturiy va/yoki apparat majmuasiga noqonuniy buzib kirish va/yoki ularni ishdan chiqarishga yo'naltirilgan g'arazli harakatlari natijasida o'z majburiyatlarini umuman yoki lozim darajada bajarmasligi;

9.3.6. Aksiya Ishtirokchilarining/Aksiya G'oliblarining har qanday xatolari oqibatlarini, shu jumladan ular tomonidan yetkazilgan zararlar;

9.3.7. Sovrinlarni olish imkoniyatiga to'sqinlik qiluvchi har qanday holatlar va faktlar, G'oliblarning harakati/harakatsizligi, shu jumladan tegishli bildirishnomalarning G'oliblar tomonidan o'z vaqtida o'qilmasligi;

9.3.8. Aksiya Ishtirokchisiga/G'olibiga bevosita xizmat ko'rsatuvchi aloqa Operatori ishidagi nuqsonlar, Aksiya Ishtirokchisi/G'olibi Internet-provayderi tizimidagi uzilishlar va boshqa texnik nosozliklar, Tashkilotchiga Aksiya Ishtirokchisi oldidagi majburiyatlarini bajarishiga imkon bermaydigan, oldindan ko'rilmagan boshqa holatlar;

9.3.9. Tashkilotchi nazorati sohasidan tashqaridagi sabablar tufayli Aksiya shartlarining lozim darajada bajarilmasligi. Tashkilotchining nazorati sohasi faqat servisning ish qobiliyati bilan cheklanadi hamda uchinchi shaxslar aybi bilan, davlat yoki sud hokimiyati idoralari tomonidan qo'yiluvchi taqiqlar va cheklovlar oqibatida yuzaga keluvchi uzilishlar uchun javobgarlikni o'z ichiga olmaydi;

9.3.10. Ilovadan foydalanish yoki foydalana olmaslik oqibatida, xatoliklar, o'tkazib yuborishlar va ishdagi tanaffuslar, Operatorning aybidan tashqari yuz bergan funksiya o'zgarishlari, nuqsonlar, ishdagi ushlanib qolishlar natijasida Aksiya Ishtirokchisiga yetgan bevosita yoki bilvosita zarar;

9.3.11. Tashkilotchiga/Operatorga tegishli bo'lmagan va Tashkilotchining/Operatorning boshqaruvi ostida bo'lmagan dasturiy ta'minotdagi, yoki Tashkilotchiga/Operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra uzilishlar va/yoki jihozlarning ishdan chiqishi holatida xizmatni taqdim etishdagi tanaffuslar;

9.3.12. Jihozlarning va dasturiy ta'minotning almashtirilishi, yoki Ilovaning ish qobiliyatini qo'llab-quvvatlash zarurati tufayli boshqa ishlarning o'tkazilishi bilan bog'liq holda Xizmatlarni taqdim etishning butkul yoki qisman uzilishlari;

9.3.13. Internet tarmog'idagi alohida sohalarning ishlashi va ulardan foydalanish imkoni;

9.4. Aksiya Ishtirokchisi quyidagilar uchun javobgardir:

9.4.1. Mazkur Ofertada bayon etilgan majburiyatlarining umuman yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida o'zida kelib chiqadigan har qanday zararlar yoki boshqa salbiy oqibatlar;

9.4.2. Himoyalangan ulanishni qo'llovchi, yoki ziyonkor dasturlar va ilovalar xavfi ostida bo'lgan qurilmada o'zining shaxsga doir ma'lumotlarini kiritayotib, ularning saqlanishi.

10. BOSHQA QOIDALAR

10.1. Tashkilotchi mazkur Ofertada yozilgan Xizmatlarni o'zining texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda taqdim etadi.

10.2. Tashkilotchi/Operator O'zbekiston Respublikasi davlat idoralarining qarorlarini bajarish bo'yicha, shuningdek ishlab chiqarish zarurati bilan bog'liq bo'lgan, Xizmatlarning taqdim etilishida uzilishga va sifatning vaqtincha pasayishiga olib kelishi mumkin bo'lgan ishlarni o'tkazishga haqli.

10.3. Tomonlar yuzaga kelgan har qanday ziddiyatni faqat muzokaralar yo'li bilan hal etish uchun barcha ishni qiladilar. Ziddiyatlarni muzokaralar yo'li bilan bartaraf etish imkonsiz bo'lgan holatlarda, tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq holda O'zbekiston Respublikasi sud idoralariga murojaat etadilar.

10.4. Mazkur Bitim bilan tartibga solinmaydigan savollar yuzaga kelgan hollarda, tomonlar ularni hal etishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, Tashkilotchining/Operatorning ichki hujjatlariga tayanadilar.

10.5. Ushbu Ommaviy Oferta bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan. Ular orasida farq aniqlansa, rus tilidagi matn birlamchi hisoblanadi.